



**IQTISODIYOTNING BARQAROR O‘SISHI HAMDA TURIZM
SOHASI VA XIZMATLARINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA
TURIZM OBYEKTLARINING AHAMIYATI VA ROLI**

Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna

Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi PR,
marketing tadqiqotlari, xalqaro aloqalar va Reytinglar
bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis, O‘zbekiston
Respublikasi Bank Moliya akademiyasi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Iqtisodiyotning barqaror o‘sishi hamda turizm sohasi va xizmatlarini yanada rivojlantirishda turizm obyektlarining ahamiyati va roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, iqtisodiyot, xizmatlar, sayyohlar, sayyohlik korxonalari.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и роль туристических объектов в обеспечении устойчивого роста экономики и дальнейшем развитии туристической отрасли и услуг.

Ключевые слова: туризм, экономика, услуги, туристы, туристические предприятия.



Abstract: This article discusses the importance and role of tourism objects in ensuring sustainable economic growth and further developing the tourism sector and services.

Keywords: tourism, economy, services, tourists, tourism enterprises.

Kirish. Iqtisodiyotning barqaror o'sishi va turizm sohasini rivojlantirishda turizm obyektlarining ahamiyati juda katta. Iqtisodiyotning barqaror o'sishi haqida bir nechta muhim ilmiy ma'lumotlar va tushunchalarni keltirib o'taman. Barqaror rivojlanish maqsadlari: BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) 2015 yilda qabul qilingan bo'lib, 2030 yilga qadar erishilishi kerak bo'lgan 17 maqsadni o'z ichiga oladi. Ushbu maqsadlar ijtimoiy adolat, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Innovatsiya va texnologiyalar esa Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt va boshqa innovatsiyalar yangi ish joylari yaratish va mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ijtimoiy barqarorlik va tengsizlikni kamaytirish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ijtimoiy adolat, gender tengligi va ijtimoiy himoya tizimlari iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Turizm obyektlari nafaqat tashrif buyuruvchilar uchun qiziqarli joylar bo'lib, balki mahalliy iqtisodiyot uchun ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada turizmni jamiyatda rivojlantirishning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Turizm sohasining barqaror o'sishini ta'minlash uchun zamonaviy amaliyotlar, mahalliy resurslardan foydalanish va jamoatchilik ishtiroki muhim omillar sifatida ajratiladi.

Turizm bugungi kunda global iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylangan. U nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki madaniy almashinuv va ijtimoiy taraqqiyotga ham hissa qo'shadi. Ushbu maqolada turizmni jamiyatda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va



strategiyalari tahlil qilinadi. Ish o‘rinlari yaratish: Turizm obyektlari, masalan, mehmonxonalar, restoranlar, ko‘ngilochar markazlar va ekskursiya xizmatlari orqali ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi. Investitsiya jalb qilish: Turizmning rivojlanishi uchun infratuzilma va xizmatlar talab etiladi, bu esa investitsiyalarning o‘lishini ta‘minlaydi.

1. Mahalliy iqtisodiyotga ta‘siri

Mahalliy mahsulotlarni iste‘mol qilish: Turizm obyektlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik qilishi, natijada mahalliy iqtisodiyotga qo‘shimcha qiymat qo‘shishi mumkin. Xizmatlar ko‘rsatish: Turizm sohasidagi xizmatlar, masalan, transport, ovqatlanish va boshqa qulayliklar, mahalliy aholi uchun daromad manbai bo‘ladi.

2. Madaniy va ijtimoiy ahamiyati

Madaniyatni targ‘ib qilish: Turizm obyektlari mahalliy madaniyat va an‘analarni tanitishga yordam beradi, bu esa turizmni yanada jozibador qiladi. Ijtimoiy rivojlanish: Turizm, odamlar o‘rtasida madaniy almashinuvni kuchaytiradi, bu esa ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

3. Barqaror rivojlanish

Ekoturizm: Barqaror turizm obyektlari tabiiy resurslarni saqlab qolishga va mahalliy ekotizimlarni himoya qilishga yordam beradi. Ijtimoiy mas‘uliyat: Turizm obyektlari atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, barqaror rivojlanishga e‘tibor qaratishi kerak.

4. Raqobatbardoshlik

Innovatsiyalar: Raqobatbardosh turizm obyektlari yangi texnologiyalarni va xizmatlarni qo‘llab-quvvatlashi, bu esa xizmatlar sifatini oshiradi. Brend yaratish: O‘ziga xos turizm obyektlari mamlakat yoki mintaqa brendini yaratishga yordam beradi, bu esa tashrif buyuruvchilar sonini oshiradi.



Butun jahon turizm tashkiloti (UNWTO) nigohida “Sentob” qishlog‘i “Sentob” qishlog‘i Navoiy viloyati markazidan, 180 km, Nurota tumani markazidan 120 km uzoqlikda, baland tog‘lar orasida joylashgan so‘lim tabiatli shifobaxsh buloqlarga boy, o‘zgacha yashash tarziga ega tub aholisi, qishloqqa tashrif buyuruvchi har bir sayyohda o‘zgacha taassurot qoldiradi. Qishloqning turizm salohiyati oshirish uchun, infratuzilma ishlari doirasida qishloqqa olib boruvchi 5 km ichki yo‘l ta‘mirlandi, tungi yoritish chiroqlari, 2 ta piyodalar ko‘prigi, 2 ta selfi hudud, 3 ta sanitariya-gigiyena shoxobchasi, Sentob qishlog‘ining ramziy kirish stellasi, 1 ta turistik axborot markazi qurib bitkazilib foydalanishga topshirildi. Shuningdek, qishloqda 20 ta oilaviy mehmon uyi, 3 ta xostel hamda 15 turdagi turizm xizmatlari tashkil etilib, 200 nafarga yaqin ishsiz aholi, xotin-qizlar doimiy ish o‘rinlari bilan ta‘minlandilar. Joriy yilning 16-20-oktabr kunlari Samarqand shahrida UNWTO Butun jahon turizm tashkilotining 25-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiya doirasida “Eng yaxshi turizm qishlog‘i” nominatsiyasi bo‘yicha butun dunyodan ko‘plab davlatlardan nomzodlar orasidan “Eng yaxshi turizm qishlog‘i” nominatsiyasida Navoiy viloyati Nurota tumanida joylashgan “Sentob” qishlog‘i g‘oliblikni qo‘lga kiritganligi amalga oshirilayotgan ishlarning ijobiy natijasi albatta. Turist — investitsiya degani. Hududda turizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsiyalari 2022 yilda umumiy qiymati 128,0 mlrd.so‘mlik 58 ta loyihalar (9 ta mehmonxona, 8 ta xostel, 38 ta oilaviy mehmon uyi, 3 ta dam olish maskani) ishga tushirilib, ular hisobiga 304 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. 2022 yil yakunida viloyatdagi mehmonxona va oilaviy mehmon uylari soni 188 taga, ulardagi o‘rinlar soni esa 5904 taga etkazildi va 2019 yilga nisbatan o‘rish ko‘rsatkichi 5 barobarga oshishiga erishildi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yurtimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Turizm obyektlarining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy



ahamiyati, ularni barqaror rivojlantirish strategiyalarida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki jamiyat va madaniyatning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Shuning uchun, turizm obyektlarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar va siyosatlarni amalga oshirish zarur. Turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar oqimini oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga binoan, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturlari ijrosini ta'minlash doirasida hamda soha mutaxassisi sifatida quyidagi takliflarni bildirmoqchiman. Respublikaning turizm salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar:

1. To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish;
2. Madaniy meros ob'ektlari hamda ularga olib boruvchi infratuzilmani rivojlantirish hamda madaniy meros ob'ektlaridan samarali foydalanish bo'yicha dastur ishlab chiqish va qabul qilish;
3. Mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish;
4. Ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm sohalarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash.

Navoiy viloyatining turizm salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar:

Viloyatning ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish;

Viloyatning Karmana tumanidan o'tuvchi xalqaro M-37 yo'l bo'yida yirik "Karvonsaroy" loyihasini tashkil etish;

Viloyatning Qiziltepa tumanida joylashgan "To'da ko'l" va Nurota tumanida joylashgan "Aydarko'l" suv omborlari atrofida dam olish maskanlari tashkil etish;



Viloyatning Xatirchi tumanida joylashgan “Langar” tog‘ tizmalarida osma dor yo‘li tashkil etish; Turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar berish ishlarini yengillashtirib, jahon andozalariga javob beradigan turizm xizmatlari markazlari va mehmonxonalar (joylashtirish vositalari) sonini ko‘paytirish.

Natija. Turizm faoliyatini rivojlantirishning moddiy-texnikaviy omillari turizm infratuzilmasi ya’ni mehmonxonalar, yotoqxonalar, do‘konlar, yo‘llar, aloqa, banklar va boshqalar hisoblanadi. Yuqoridagilarni e’tiborga olib, turizm faoliyatining tashqi muhitini tahlil qilishda yuqorida sanab o‘tilgan, yangi mahsulotlarni shakllantirish, amalga oshirish va keyinchalik rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omillarga katta e’tibor qaratish lozim. Bularning barchasi butun turizm sohasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
2. Raximov Z.O. Turizm sohasida mehmonxonalar xo‘jaligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari.// Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2021. 212 bet.
3. Raximov Z.O., Ibadullaev N.E., Xaitboev R. Turoperating.// Darslik.Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 396 bet.
4. Raximov Z.O., Ismailov N.I. Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning ahamiyati./ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborotnomasi. Nukus 2020 yil 3-son (ISSN 2010-9075). 42-45 bet.
5. Raximov Z.O. Raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning yangi turlarining rivojlanishi./ SamISIda o‘tkazilgan «Turizmda innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konfrensiyasi. (2020 yil, 3-iyun) – Samarqand: SamISI, 2020.